

Angren shahri "A.Navoiy", "Obod turmush" va "Istiqlol" ko'chalarining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ob'yekti bo'yicha loyiha-smeta va loyiha-qidiruv ishlarini tayyorlash bo'yicha

04/21 - sonli SHARTNOMA

Toshkent shahri

"18" 04 2022 yil

Keyingi o'rirlarda Buyurtmachi deb yuritiladigan Toshkent viloyati hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" Injiniring Kompaniyasi nomidan direktor E.Abdulvaliyev va keyingi o'rirlarda Loyihachi deb yuritiladigan «PROEKT INVEST» MCHJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi direktor A.Madominov quyidagi shartnomani tuzdilar:

### 1. Shartnoma predmeti

1.1. Loyihachi Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha belgilangan muddatda Angren shahri "A.Navoiy", "Obod turmush" va "Istiqlol" ko'chalarining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ob'yektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari, loyiha-qidiruv ishlarini ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o'tkazish majburiyatini, Buyurtmachi esa uni qabul qilib olish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. Bajariladigan ishlar tasdiqlangan loyiha oldi topshirig'iga asosan amalga oshiriladi.

1.3. Shartnoma loyiha va loyiha-qidiruv ishlarini ishlab chiqishga, loyiha hujjatlarni tegishli ekspertizadan o'tkazish va texnik shartlarni (APZ-O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va Qurilish qo'mitasining 2017 yil 20-sentyabrdagi №8688/3302-sonli xatiga asosan zarur xollarda) tayyorlash bilan bog'liq boshqa ishlarga tuzilgan.

1.4. Shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Toshkent viloyati G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi xamda Loyiha-smeta hujjatlarni ishlab chiqish va buyurtmachiga topshirish ishlari mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi muddatda tugatiladi.

1.5. Loyihachi loyiha-smeta hujjatlariiga ijobiy davlat ekspertiza xulosasini olgandan so'ng 5 kun ichida 3 (uch) nusxada loyiha-smeta hujjatlarni va tegishli hujjatlarni Buyurtmachiga taqdim etishi kerak.

### 2. Shartnoma bahosi va to'lovlar qoidalari

2.1. Ishlarni amalga oshirishning baxosi 1-ilovaga muvofiq **85 000 000 (Sakson besh million)**, QQS 15% bilan so'mni tashkil qiladi va mazkur shartnomaning 2-ilovasidagi loyiha ishlarini bajarish jadvaliga muvofiq bajariladi.

2.2. Buyurtmachi shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Toshkent viloyati G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tgandan so'ng xamda "Buyurtmachi"ning ob'yekt bo'yicha shaxsiy hisob varag'iga byudjetdan mablag' tushgandan so'ng 10 kun ichida shartnoma summasining 30% miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

2.3. Bajarilgan ishlar uchun joriy moliyalashtirish Buyurtmachi va Loyihachi tomonidan dalolatnomalar rasmiylashtirilib "Buyurtmachi"ning ob'yekt bo'yicha shaxsiy hisob varag'iga byudjetdan mablag' tushgandan so'ng 15 kun ichida amalga oshiriladi.

2.4. Loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachi tomonidan ko'rib chiqilib, ekspertizaga taqdim etilgandan so'ng, jami ishlar hajmining 70% foiz miqdorigacha ishlar bajarilgan deb qabul qilinadi.

Ob'yekt bo'yicha ekspertiza xulosasi olingandan so'ng va 3 (uch) nusxada loyiha-smeta hujjatlari va loyiha-qidiruv ishlari Buyurtmachiga taqdim etilgandan keyin qolgan mablag' topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilib, (mazkur shartnomaning 2.3-bandiga asosan) Buyurtmachi"ning ob'yekt bo'yicha shaxsiy hisob varag'iga byudjetdan mablag' tushgandan so'ng moliyalashtiriladi. Bunda "Buyurtmachi" "Loyihachi" oldida to'liq bo'limgan yoki o'z vaqtida bo'limgan moliyalashtirish uchun javobgar emas.

2.5. Ishlar qiymatini uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi O'zbekiston Respublikasi Xukumatining tegishli qarorlari asosida Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda.

### 3.Tomonlar majburiyatları

3.1. Buyurtmachi:

- barcha ishlar bajarib bo'lingandan keyin belgilangan shartnoma narxining xammasini Loyihachiga to'lashi yoki ishlarning ayrim bosqichlari tugallanganidan keyin shartnoma narxining tegishli qismini to'lashi;

- tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlarining yoki bajarilgan qidiruv ishlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo arizasidan ishda qatnashishga Loyihachi jalg qilishi shart.

### 3.2. Loyihachi:

- Loyiha va qidiruv ishlarini bajarish uchun dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligiga, shuningdek loyiha-smeta hujjatlaridagi qabul qilingan loyihamiy yechimlarga javobgardir;

- loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqqandan so'ng loyiha-smeta hujjatlarini davlat ekspertizasi va kompleks ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etadi.

- loyiha va qidiruv ishlarini bajarish uchun topshiriqdagi va boshqa dastlabki ma'lumotlardagi talablarga, O'zbekiston Respublikasining tegishli amaldagi qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlarga qat'iy rioya qilishi shart;

- ishlarni loyihalash haqidagi topshiriq va boshqa dastlabki ma'lumotlarga muvofiq bajarishi;

- tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini buyurtmachi va foydalanuvchi tashkilotlar (tuman TYFUK, tuman obodonlashtirish, elektr tarmoqlari korxonalarini va boshqalar) bilan kelishib olishi shart;

- tayyor bo'lgan loyiha-smeta hujjatlarini va qidiruv ishlari natijalarini shartnomada belgilangan muddatlarda buyurtmachiga topshirishi;

- buyurtmachining rozilgisiz loyiha-smeta hujjatlarini uchinchi shaxslarga bermasligi shart.

3.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 noyabrdagi PF-5577-son farmoniga asosan ob'yeektni qurishning barcha bosqichlarida mualliflik nazorati majburiydir va Loyihachi shartnomasi qiymati doirasida mualliflik nazorati olib borishi shart;

3.5. **Loyihachi loyiha-smeta hujjatlarida qabul qilgan loyihamiy yechimlari uchun yohud ularda aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.** Shuningdek keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlari va bajarilgan qidiruv ishlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'yeektni ishlatish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgar bo'ladi. Loyiha-smeta hujjatlarida yoki qidiruv ishlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Loyihachi Buyurtmachining talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqish va shunga muvofiq zarur qo'shimcha qidiruv ishlarini bajarish, shuningdek, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'limasa, keltirilgan zararni buyurtmachiga to'lashi shart.

## 4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

4.1. Bajarilgan ishlarni topshirish va qabul qilish Loyiha-smeta hujjatlarini bajarish loyiha oldi topshirig'i talablariga binoan belgilanadi.

4.2. Ishlar bajarilishining alohida bosqichi va shartnomasi bo'yicha belgilangan jami ishlar tugagandan so'ng Loyihachi Buyurtmachiga ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan hujjatlar to'plamini topshiradi.

4.3. Buyurtmachi ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi va mazkur shartnomaning 4.2 bandida ko'rsatilgan hisobot hujjatlarini olgandan so'ng 10 kun mobaynida ishlarni qabul qilish va Loyihachiga imzolangan topshirish va qabul qilish dalolatnomasini yoki ishlarni qabul qilmaslikning asoslangan rad javobini yuborishni o'z zimmasiga oladi.

4.4. Buyurtmachi ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen holda zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda, ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

4.5. Agar ishlarni bajarilish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolar kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

4.6. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqt hisoblanadi.

4.7. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi mumkin.

## 5.Korrupsion holatlarni bartaraf etish

5.1 Shartnomasi yuzasidan ishlarni amalga oshirish jarayonida tomonlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvini yuzaga keltirishga (ta'magirlilik, asossiz ravishda muddatlarni cho'zish, normativ hujjatlarga rioya etmaslik, sansolarlik) yo'l qo'ymaslik shart.

5.2 Taraflarning biri tomonidan korrupsion holatlarga davat qilishlik, ikkinchi tomon zimmasiga darhol mazkur holat yuzasidan kompaniya rahbariga yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini yuklaydi. (ishonch telefoni: kompleans nazorat 99-890-22-90)

## 6. Konfidensial ma'lumotlarni himoyalash

6.1. Ishlar bajarilishi davrida Loyihachi o'zi konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni Buyurtmachidan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 7. Qo'shimcha shartlar

7.1. Loyihachi loyihani muddatidan oldin bajargan holda, Buyurtmachi uni mazkur shartnomaning 4-moddasiga asosan qabul qiladi va o'rnatilgan tartibda to'lovnini amalga oshiradi.

7.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda hal qilinadi. Kelishuvga kelinnagan takdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar O'rtachirchiq tumanlararo Iqtisodiy sudida e'tiroz tartibiga rioxan qilgan xolda, ko'rib chikiladi. E'tirozlar yozma ravishda taqdim qilinishi kerak va ularni ko'rib chiqish muddati e'tiroz bildirilgan tomon olganidan keyin 1 (bir) oy muddatni tashkil etadi.

7.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

7.4. Loyihachi shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish uchun, Buyurtmachini belgilangan tartibda ma'lum qilgan holda, uchinchi shaxslarni jalg qilish huquqiga ega.

7.5. Buyurtmachi tomonidan dastlabki to'lov o'z vaktida o'tkazilmagan xolda kechiktirilganda ishlarni tugallash muddati to'lov yoxud taqdim kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

7.6. Buyurtmachi tomonidan to'lovlari bilan bog'liq o'z majburiyatlari kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim, bunda Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan holatlar bundan mustasno.

7.7. Loyihachi tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash va buyurtmachiga topshirish o'z vaqtida bajarilmay majburiyatlar buzilgan bo'lsa, Loyihachi Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim;

7.8. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

7.9. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi.

7.10. Mazkur shartnoma tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajarguncha qadar xamda 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.11. Shartnomaga quyidagilar ilova qilinadi:

- Shartnoma bahosining kelishivi bayonnomasi (1-ilova)
- Loyiha-smeta va qiduruv ishlarni bajarish uchun kalendar rejasи (2-ilova)
- Loyiha va qiduruv ishlari narxini aniqlash smetasi (3-ilova)

## 8. Tomonlarning manzili va hisob raqamlari

“Buyurtmachi”

“Loyihachi”

Toshkent viloyati “Yagona buyurtmachi xizmati”  
Injiniring kompaniyasi

Nurafshon shahri, Toshkent yo'li ko'chasi 90,  
Sh/r: 1000 218 602 740 170 4980 1018 067  
O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi  
G'aznachiligining Amaliyot boshqarmasi  
h/r:23402000300100001010  
MFO 00014  
STIR 202 230 110

MB Toshkent shahar bo'yicha BBXKM

Direktor

E.Abduvaliyev



Yurist maslaxatchi

«PROEKT INVEST» MCHJ

Angren shahar Bunyodkor ko'chasi 38 uy  
h/r 2020 8000 0050 7673 3001  
ATIB “IPOTEKABANK” Angren filiali  
MFO 00461 STIR 306 426 549  
OKED 41100



Direktor:

A.Madominov



2022 yil «18» 04 dagi  
04/21 -sonli shartnomaga 1- ilova

Shartnomma bahosining kelishuv

B A Y O N N O M A S I

Biz, quyida imzo chekuvchilar Angren shahri “A.Navoiy”, “Obod turmush” va “Istiqlol” ko‘chalarining me’moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ob’ekti bo'yicha 2022 yil “18” 04 dagi 04/21-sonli shartnomma bahosi 85 000 000 (Sakson besh million) QQS 15% bilan, so‘mga teng deb kelishilganini tasdiqlaymiz.

Ushbu bayonnomma Buyurtmachi va Loyihachi o‘rtasida o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

“Buyurtmachi”

Toshkent viloyati hokimligi  
“Yagona buyurtmachi xizmati” Injiniring  
Kompaniyasi



Direktor

E. Abduvaliyev

“Loyihachi”

«PROEKT INVEST» MCHJ

Direkfor

A. Madominov



2022 yil «18» 04 dagi  
04/21-sonli shartnomaga 2- ilova

Loyiha-smeta va qiduruv ishlarini bajarish uchun

KALENDAR REJASI

T/p	Shartnoma bo'yicha ishlar nomi	Bajarish muddati	Hisob-kitob narxi, so'mda
1	Angren shahri "A.Navoiy", "Obod turmush" va "Istiqlol" ko'chalarining me'moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ob'yektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari, loyiha-qidiruv ishlarini ishlab chiqish	Boshlang'ich to'lov amalga oshirilgandan so'ng 20 kun	85 000 000 (Sakson besh million) so'mni tashkil qiladi, QQS 15% bilan

“Buyurtmachi”

Toshkent viloyati hokimligi  
“Yagona buyurtmachi xizmati” Injiniring  
Kompaniyasi



Direktor

E.Abduvaliyev

“Loyihachi”

«PROEKT INVEST» MCHJ



Direktor

A.Madominov

2022 yil «18» 04 dagi  
04/21 -sonli shartnomaga 3- ilova

### Loyiha va qidiruv ishlari narxini aniqlash smetasi

**Angren shahri “A.Navoiy”, “Obod turmush” va “Istiqlol” ko‘chalarining me’moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ob’yektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari, loyiha-qidiruv ishlarini ishlab chiqish va davlat ekspertizasidan o’tkazish.**

Loyihalash tashkilotining nomi - «PROEKT INVEST» MCHJ  
Buyurtmachi tashkilotining nomi - Toshkent viloyati hokimligi  
“Yagona buyurtmachi xizmati” Injiniring Kompaniyasi

No pp	Bino nomi, tuzilishi va ish nom	Qo'llaniladigan stavkani asoslash	Xarajatlarni hisoblash (so‘m) da
1.	<p><b>Angren shahri “A.Navoiy”, “Obod turmush” va “Istiqlol” ko‘chalarining me’moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish ob’yektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari, ishlarini ishlab chiqish</b></p> <p>Shu jumladan: Topoxarita ishlari, Shaharsozlik ekspertizasi</p> <p>Obekt tahminiy qiymati QQS bilan <b>3 288 500 000 so‘m</b></p>	<p>Buyruq 19.08.2019 yildagi 396-son O‘zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi Illova №3 Murakkablik toifasi - II K -2.6</p>	<p><math>3\ 288\ 500\ 000 \times 2,6\% =</math> <math>= 85\ 501\ 000</math></p> <p>Tanlovga asosan shartnoma qiymati 85 000 000 so‘m</p> <p>Shu jumladan QQS 11 086 956,52 so‘m</p>
			<b>85 000 000</b>

**Smeta bo'yicha jami: 85 000 000 (Sakson besh million) so‘mni tashkil qiladi, QQS 15% bilan**

Loyiha tashkiloti rahbari:

Loyiha bosh muhandisi:



Toshkent viloyati hokimligi  
“Yagona buyurtmachi xizmati”  
Injiniring kompaniyasi  
direktori E.Abduvaliyevga

## KAFOLAT XATI

Angren shahri “A.Navoiy”, “Obod turmush” va “Istiqlol” ko‘chalarining me’moriy qiyofasini zamonaviylashtirish va obodonlashtirish obyekti bo‘yicha «PROEKT INVEST» MCHJ loyiha tashkilotimiz tomonidan tayyorlanib ekspertizadan o‘tkazilgan va buyurtmachiga topshirilgan loyiha-smeta hujjatlari amaldagi shaharsozlik me’yorlari va SHNQ talablari asosida to‘liq ishlab chiqilganligini, loyiha-smeta hujjatlaridagi fizik ish hajmlari va ishchi loyihalar bir-biriga to‘g‘ri kelishini, shuningdek tanlov (tender) savdolari uchun taqdim etilgan fizik ish hajmlari va loyiha chizmalari bir-biriga to‘g‘ri kelishini va to‘liq topshirilishini kafolatlaymiz.

Agarda biz tomonidan ishlab chiqilgan loyiha hujjatlari va fizik ish hajmlari bir-biriga mos kelmasligi, loyiha-smeta hujjatlarida qabul qilingan loyihaviy yechimlar yoki ularda aniqlangan kamchiliklar uchun loyiha tashkilotimiz javobgarligi to‘g‘risida ogohlantirildik.

Loyiha tashkiloti direktori



A.Madominov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 63063 на приобретение РП: Ангрен шахри "А.Навоий", "Обод турмуш" ва "Истиқлол" кўчаларининг меъморий қиёфасини замонавийлаштириш ва ободонлаштириш (Лойиха қидирув ишлари ва Шаҳарсозлик Экспертиза хulosаси биргаликда) ҚҚС 6**

**Способ проведения электронный**

Дата 13.04.2022

Время рассмотрения 13.04.2022 15:51

Конкурсная комиссия Тошкент вилояти хокимлиги Ягона буюртмачи хизмати инжиниринг компанияси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Член комиссии</b>	SANNIYEV G'ULOM SAYDULLAYEVICH	Танлов савдоларини ташкил этиш ва хўжалик-шартнома муносабатлари бўлими бошлиғи ўринбосари	"Ягона буюртмачи хизмати" инжиниринг компанияси
<b>Секретарь комиссии</b>	UMAROV AZIZBEK TOSHBADALOVICH	Бирламчи рухсат берувчи, лойиҳа ҳужжатлари ва танлов ҳужжатларини тайёлаш бўлими бош мутахассиси	YBXIK Toshkent viloyati
<b>Член комиссии</b>	ABRALOV BAXROM BAXODIR O'G'LII	Бирламчи рухсат берувчи, лойиҳа ҳужжатлари ва танлов ҳужжатларини тайёлаш бўлими бошлиғи	"Ягона буюртмачи хизмати" инжиниринг компанияси
<b>Член комиссии</b>	XALIKOV FARRUX SABIRJANOVICH	Бош муҳандис	"Ягона буюртмачи хизмати" инжиниринг компанияси
<b>Член комиссии</b>	GANIYEV RAUF GANIYEVICH	Танлов савдоларини ташкил этиш ва хўжалик-шартнома муносабатлари бўлими бошлиғи	"Ягона буюртмачи хизмати" инжиниринг компанияси
<b>Председатель комиссии</b>	ABDUVALIYEV ELDOR PULATOVICH	"Ягона буюртмачи хизмати" инжиниринг компанияси директори	"Ягона буюртмачи хизмати" инжиниринг компанияси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 13.04.2022 года № лота 63063.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 60.00 / Весовой коэф. ценовой части: 40.00)

Мин. балл: 40

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуга по разработке проектно-сметных работ</b>
Подробное описание	РП: Ангрен шахри "А.Навоий", "Обод турмуш" ва "Истиқлол" кўчаларининг меъморий қиёфасини замонавийлаштириш ва ободонлаштириш (Лойиха қидирув ишлари ва Шаҳарсозлик Экспертиза хulosаси биргаликда) ҚҚС билан.

Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	98 655 000.00
Стартовая сумма	98 655 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танлов иштирокчисининг лойиҳа-смета хужжатларини тайёрлаш жараёнида фойдаланадиган оргтехника ва механизмлари рўйхати

Тип: Текстовое значение

Описание: малумотлар намуналарга мувофиқ тўлдирилиши керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО PROEKT INVEST	15	Мавжуд	10	Экспертная		
ООО TOSHKENT YO'L-LOYIHA	15	оргтехника ва механизмлари рўйхати	11	Экспертная		
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	15	1-илова	10	Экспертная		

Критерий №2 Танлов иштирокчи тўғрисидаги умумий ахборот

Тип: Текстовое значение

Описание: малумотлар намуналарга мувофиқ тўлдирилиши керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО PROEKT INVEST	15	Мавжуд	12	Экспертная		
ООО TOSHKENT YO'L-LOYIHA	15	Танлов иштирокчи тўғрисидаги умумий ахборот	10	Экспертная		
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	15	4 илова	9	Экспертная		

Критерий №3 Танлов иштирокчисининг охирги уч йилда бажарган иш тажрибаси (2019 й.-2020й-2021 й )

Тип: Текстовое значение

Описание: малумотлар намуналарга мувофиқ тўлдирилиши керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО PROEKT INVEST	15	Мавжуд	11	Экспертная		
ООО TOSHKENT YO'L-LOYIHA	15	охирги уч йилда бажарган иш тажрибаси	10	Экспертная		
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	15	3 илова	11	Экспертная		

Критерий №4 Танлов иштирокчисининг молиявий холати. охирги З йилдаги молиявий хисоботлари асосида

Тип: Текстовое значение

Описание: малумотлар намуналарга мувофиқ тўлдирилиши керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО PROEKT INVEST	15	Мафжуд	9	Экспертная		
ООО TOSHKENT YO'L-LOYIHA	15	охирги З йилдаги молиявий хисоботлари	11	Экспертная		
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	15	2 илова	9	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	98 655 000.00	73 500 000.00	12.04.2022 17:49:29	
ООО PROEKT INVEST	98 655 000.00	85 000 000.00	08.04.2022 11:30:45	40.00
ООО TOSHKENT YO'L-LOYIHA	98 655 000.00	90 655 000.00	11.04.2022 22:22:46	37.50

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО OPTIMAL ARCHITECT GROUP	39		39
ООО PROEKT INVEST	42	40	82
ООО TOSHKENT YO'L-LOYIHA	42	37.5	79.5

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 63063 от 13.04.2022 года на приобретение РП: Ангрен шахри "А.Навоий", "Обод турмуш" ва "Истиқлол" кўчаларининг мемориј қиёфасини замонавийлаштириш ва ободонлаштириш



(Лойиха қидируг ишлари ва Шаҳарсозлик Экспертиза хуносаси биргаликда) ҚҚС б определила победителем:

ООО PROEKT INVEST  
306426549

и резервный исполнитель: ООО TOSHKENT YO'L-LOYIHA (303246514)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	SANNIYEV G'ULOM SAYDULLAYEVICH	Согласен	
Председатель комиссии	ABDUVALIYEV ELDOR PULATOVICH	Согласен	
Член комиссии	ABRALOV BAXROM BAXODIR O'G'LII	Согласен	
Член комиссии	GANIYEV RAUF GANIYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП




№	Объекттар номи ва наимини	Лойка н-роли	Объектнинг уруйни кийнати (шартнома асосида)	01.01.22а. холатни илдан жаслаштирилган холатни обьектини бизнисланыш харахалтари	01.01.22а., холатни илдан жаслаштирилган холатни обьектини бизнисланыш харахалтари	2022 йил учун тақдитоти қудаймалардир лихити шур жумладан		2022 йил учун тақдитоти қудаймалардир лихити шур жумладан		2022 йилда фойдаланишига општиргандик			
						Буджетни бешка харахалтари	Жами капитан күйнага	Курниш мөнгөж ишлари	Холатни бешка харахалтари	Жами	Жамни харахалтари	Жами	Жамни харахалтари
1	Ангрен шахар "Тум" МФЙ, 4-йтар кўчаси худудидан оқиб турни Охангирон дарёсининг 4 та бўйчиник ўйлаштириш дарё узанинни очиш ва кирғозни мустакамлан	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
3	Ангрен шахар Обод махаллидан оқиб ўйчилини "Бегалсой" сийинин бошланниш жойига сеъ оқимни хифзини пасайтириш учун сув оқими телегигин сўнгичувчи (перенат) кўриш, шунингдек, убю сойнинг акони яланни жойлаштириш ўйчилини 100 метр масофадаги юқсанни мустакамлан	2022й 0,2 км						461,700	447,618	14,082			
4	Паркент тумани "Заркент" кадшоюга "Кўрген" махалласи худудидан "Заркентской" сийининг тема кисмидаги кадшоюни ва транспорт виситапланнинг харахалини учун мўжжалланган 2 та кўбурули ўтиш йўнини куриш (2-этап)	2022й 1,0 км						2584,000	2505,188	78,812			
5	Овобидон тумани "Достлик" маддасидаги Наврӯз кўчаси туманинг ташкимади и кадшоюни ва дарёсининг оқиби ўйчилини "Чирчик" худудидан оқиб турни бўйлагаб ўнг томонидаги акони яланни ўйлаштириш ўйчилини 800 метр масофадаги киртоқ мустакамлан	2022й 2,0 км						2546,600	2468,929	77,571			
6	Овобидон тумани "Кўштамтаг" МФЙ худудидан оқиб ўйчилини Осангарон дарёсининг оқиби бўйлагаб ўнг томонидаги жойлаштириш "Кўштамтаг" кадристонига ёнф соласетган яқинидаги дарё сунин хадфини кадистонидаги дарё ўзинини 800 метр масофадаги дарё ўзинини тўйирлашни киртоқ мустакамлан	2022й 0,8 км						1316,700	1276,541	40,159			
7	"Нуфтодон" кўчаси худудидан оқиб ўйчилини Охангирон "Дарёсининг" оқиби бўйлагаб ўнг томонидаги жойлаштириш 6 та бўйланик ўйлаштириш холатни жаслаштириш ўйчилини 400 метр масофадаги дарё ўзинини очиш ва кирғозни мустакамлан	2022й 0,4 км						1539,400	1492,448	46,952			
8	Бўстонлик тумани "Хусон" кишлоги "Субхондан" махалласи худудидан оқиб ўйчилини "Гап" дарёсининг оқиб ўйчилини чап киртоқларни мустакамлан	2022й 0,4 км						923,800	895,624	28,176			
9	Охангирон тумани "Пойғаз" МФЙ худудидан оқиб ўйчилини "Пойғаз" сийининг оқиб ўйчилини чап киртоқларни мустакамлан	2022й 0,4 км						730,200	707,929	22,271			
10	Охангирон тумани "Янгут" МФЙ худудидан оқиб ўйчилини "Янгут" сийининг оқиб ўйчилини чап киртоқларни мустакамлан	2022й 0,5 км						690,500	669,440	21,050			
11	Охангирон тумани "Пойғаз" сийининг оқиб ўйчилини "Пойғаз" сийининг оқиб ўйчилини чап киртоқларни мустакамлан	2022й 1,2 км						1786,700	1732,206	54,494			

№	Объектар номи ва маъзоти	Бекабод тумани "Хўжиний Мой" Бойнову даравининг ўзинин турдиш ва осим бўйлаб чап томони юргонни мустакаллаи	2022 йил Учун капитат бўйичмалар даромади			2022 йил фойдаланушча			2022 йил топширилдидан		
			шу жумладан	Буюргани боска харояти	Кўришчи мактаб ишлари	Кўришчи жумладан жами	Кўришчи жумладан жами	Асосий фонд суммаси	01.01.23г., холатига якдан интига утичи объектининг мөнлиягитирниш ко'нинни жумладан жамоатни бўйлаб чап харояти	01.01.23г., холатига якдан интига утичи объектининг мөнлиягитирниш ко'нинни жумладан жамоатни бўйлаб чап харояти	Тендер гайнишварлар натижасига бўйна байнига раҳами ва санаси
1	Лойиҳа "Чарх бўйлаб чап харояти"	Объектинг узвий жадид юзарона асосида	01.01.22г. холатига якдан интига утичи объектининг (корига жоссаби бўйлаб чап харояти)	01.01.22г., холатига якдан интига утичи объектининг мөнлиягитирниш ко'нинни жумладан жамоатни бўйлаб чап харояти	Жумладан кўришлар	Жумладан жами	Кўришчи жумладан жами	Асосий фонд суммаси	Экспертиза хўчсаси раҳами ва санаси	Ташк. эт.номи	
2	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
3	12	Бекабод тумани "Хўжиний Мой" Бойнову даравининг ўзинин турдиш ва осим бўйлаб чап томони юргонни мустакаллаи	2022й 1.2 км			1754.200	1700.697	53.503			
4	24	Туман марказлари ва шахарларнинг меморий киёфасини замонавийлартириш ва ободнавийлартириш	2022й 22 объект			87517.700	84627.205	2890.495	0,000		
5	22	Янги курналадиган объектлар	112,8 км			84263,600	81373,105	2890.495	0,000		
6	1	Айтган шахри "А.Наполеон" "Обод турмуш" ва тистиколот кўчаларининг меморий ободнавийлартириш	2022й 4,4 км			3288,700	3175,455	113,245			
7	2	Бекебод шахри "Г.Гулом", "А.Темур", "Сирдоғон", "Гурод" ва "Муҳаммадов" кўчаларининг меморий киёфасини замонавийлартириш ва ободнавийлартириш	2022й 8,2 км			6128,500	5920,115	208,385			
8	3	Олимпий шахри "М.Улугбек" ва "Тотулик" кўчаларининг меморий киёфасини замонавийлартириш ва ободнавийлартириш	2022й 8,1 км			6053,800	5847,918	205,882			
9	4	Охангирон шахри "А.Темур", "Харбийтар", "Умил", "Профсаюза" жойлашган "Кўргон" МФИ худудига жойлашган "Сангарон" кўчаси, "Хонобод" МФИ худудига жойлашган "Шифорок" кўчаси МФИйлардин болгечни туаша кўчаларининг меморий киёфасини замонавийлартириш ободнавийлартириш	2022й 4,9 км			3624,800	3500,289	124,511			
10	5	Нурадирон шахри "Гулом", "Кўраси, вилоят ИКБ биносидан мерказий "Юксалиш" ва "Тараскот" маколатлари кўчаларининг меморий киёфасини замонавийлартириш ва ободнавийлартириш	2022й 13,2 км			9865,400	9531,829	333,571			
11	6	Чарчик шахри "А.Навои" шахр кўчасини иёвморий киёфасини замонавийлартириш ва ободнавийлартириш	2022й 4,0 км			2989,500	2886,272	103,228			
12	7	Янгиёй шахри "Истиклол" ва "Утистон" замонавийлартириш	2022й 5,6 км			4185,300	4042,012	143,288			
13	6	Бекабод тумани "Мустакалик", "Абулла Кадсбор", "Иబ Сино", "Фаробий" кўчаларининг меморий киёфасини замонавийлартириш ва ободнавийлартириш	2022й 2,5 км			1868,500	1802,925	65,675			

100%  
100%



№	Объектар номи ва маконли	Лойиса қуввати	Объектининг урийни килимати (шартнома асосидаги бўйичадан, ҳамда жудозасини беша хизматкодасига)	2022 йил уйни салотиб юйинчидар лимити		2022 йил уйни салотиб юйинчидар лимити	
				ш. Жумладан	Буюмдан беша хизматкодасига	Буюмдан беша хизматкодасига	Буюмдан беша хизматкодасига
1	Цитос тумани "Б.Бодоров", "Бузстон" ва законыи иштирокчилини оболончидарлари	2022 йил 4,3 км	С. 01.22а, холатига яндай нига утгани ошибетини (яйло хисоблани бўйича) эрадик жудозасини беша хизматкодасига	5213,700	3102,961	110,739	
20	"Нарур" Кўнчарининг меморийни законыи иштирокчилини оболончидарлари	2022 йил 3,6 км	Жамии калиятан хизматкодасига	2690,600	2597,475	93,125	
21	Юкорачирлик тумани "Мазориат", "Утифок", "Коработ", "Чирчик", хўҷадарининг меморий киёбасини законыи иштирокчилини оболончидарлари	2022 йил 4,6 км	Жамии калиятан хизматкодасига	3438,000	3319,247	118,253	
22	Сийтийуб тумани "Ачи", "Корунч", "Тубахор" ва "Навоахор" мебўйланган хўҷадарининг меморий киёбасини законыи иштирокчилини оболончидарлари	2022 йил 4,6 км					
2	Йеллан-йилга ўтгани объектлар	11,9 км	14598,925 550,345	66,690 66,690	4023,273 3254,100	0,000 0,000	11,9 км 0,000 0,000
1	Чирчик шахар "А. Текур" (оддинги 50 йилини) кўнсанни законыи иштирокчилини (тунги чирчакларни ўрнатиш, піёзашар ва вепсисте кўнсаннини куриш)	2021- 2022 йил 5,5 км	11508,166 377,523	66,690 66,690	2753,166 66,690	2129,900 66,690	2063,210 65,690
2	Тошкент тумани Бунёдкор, Нурхон, Муудорий, Оғарин, М.Қадирлар, Ташаффорон (тунги чирчакларни ўрнатиш, піёзашар ва вепсисте кўнсаннини куриш)	2021- 2022 йил 6,4 км	3690,759 172,822	0,000 0,000	1270,107 0,000	1124,200 0,000	64 км 0,000
	Ф. Красногор кураудорлик ш. Жулдузбек				11320,200		
	Туман марказлари ва шахарларининг меморий киёбасини замонавийдатлари ва оболончидарлари						
	Киргиз бўйи ва бослах хизмогидорлар				75,600		



Узбекистон Республикаси  
Мония вазифадаги  
М. Абдулвалиев  
2022 й.

VI BOJATI JAHONIY VILAYETI  
XIZMATI KOKASHI  
TOSHLASI  
TURKISTON  
REPUBLICA YARQONA BILGI  
O'ZBEKISTON

"КЕПИШИЛДИ"  
"КЕПИШИЛДИ"  
Ўзбекистон Республикаси  
Иктисадий тараккуёт ва камлагалтини  
қискартириши вазирлиги  


2022 й.